

Muxamedjanova Shahbora Kamolovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xitoyfilologiyasikafedراسи 1-kurs tayanchdoktoranti

XITOIY TILIDA HARAKAT YOʻNALISHI MODIFIKATORLARI VA ULARNING GRAMMATIK MAʼNOLARI

Annotatsiya. Xitoy tili tadqiqotchilari tomonidan harakat feʼllari guruhi tarkibida harakat yoʻnalishi feʼllari ajratiladi. Bu feʼllar gapda mustaqil feʼl predikati vazifasida ham, modifikator yoki yoʻnalish morfemasi sifatida qoʻshimcha gap boʻlagi vazifasida ham kela oladi.

Maqolada xitoy tilidagi harakat yoʻnalishi modifikatorlari, ularning qoʻllanilishi hamda grammatik maʼnolari haqida fikr yuritiladi.

Kalit soʻzlar: harakat yoʻnalishi feʼli, koʻmakchi feʼl, modifikator, morfem-modifikator, yoʻnalish modifikatori, natija modifikatori, holat modifikatori.

Аннотация. Исследователи китайского языка классифицируют глаголы направления движения как часть группы глаголов действия. Эти глаголы могут употребляться в предложении как глагол предикат или как дополнительная часть речи в качестве модификатора или направленной морфемы.

В статье рассматриваются модификаторы движения в китайском языке, их использование и грамматические значения.

Ключевые слова: глагол действия, вспомогательный глагол, модификатор, морфем-модификатор, модификатор направления, модификатор результата, модификатор обстоятельства.

Annotation. Chinese languageresearchers classify direction of movement verbs as part of a group action verbs. These verbs can appear in a sentence as an independent verb predicate or as an additional part of speech as a modifier or directional morpheme.

The article discusses the modifiers of movement in Chinese, their use and grammatical meanings.

Keywords: action verb, auxiliary verb, modifier, morpheme modifier, direction modifier, result modifier, case modifier.

Xitoy tilida harakat yoʻnalishi feʼllari gapda mustaqil maʼnoga ega feʼl-kesim vazifasida keladi. Bu mustaqil feʼllar harakatni ifodalovchi yetakchi feʼlga birikib koʻmakchi feʼl vazifasida ham qoʻllana oladi. Bunday leksik birliklarni xitoy tilida ikki boʻgʻinli feʼllar deyiladi.

Harakat yoʻnalishi feʼllari koʻmakchi feʼl boʻlib kelganda, 补语 *bǔ yǔ* yoʻnaltiruvchi morfema vazifasini bajaradi. Xitoy tili grammatikasida bu morfemayoʻnaltiruvchi qoʻshimcha boʻlak, modifikator [2], oriyentatsion modifikator yoki yoʻnaltiruvchi morfema [4], qoʻshimcha element [5] deb ataladi. Qayd qilingan terminlar orasida keskin farq yoʻq. Ushbu ishimizda modifikator terminidan foydalanildi va harakat yoʻnalishi feʼllarining modifikator vazifasidagi xususiyatlari tadqiq qilindi.

Xitoyshunos olim A.A. Dragunov xitoy tilidagi feʼllarni ikki guruhga boʻlib, ularni harakatni ifodalovchi feʼllar va harakatni ifodalamaydigan feʼllarga ajratib, harakatni ifodalamaydigan feʼllar harakat hisob soʻzlar, shuningdek, feʼl affiksi 了 *le* bilan birga qoʻllanilmasligi bilan harakatni ifodalovchi feʼllardan ajralib turishini qayd etib oʻtgan. Shuningdek, harakatni ifodalovchi feʼllar oʻz ichida bir qancha guruhlarga boʻlinib, ulardan biri harakat yoʻnalishi feʼllari guruhidir. A.A. Dragunov fikricha, harakat yoʻnalishi feʼllarining oʻziga xos grammatik jihati shundaki, ular gapda harakat feʼllari bilan birga kelib *morfem-modifikator* vazifasini bajara oladi. A.A. Dragunov oʻz ishlarida tarkibida harakat yoʻnalishi feʼllari modifikator vazifasida kelgan qoʻshma feʼllar fonetik jihatdan, yaʼni birinchi boʻgʻinga, asosiy morfemaga urgʻu tushishi bilan ajralib turishiga alohida eʼtibor qaratib oʻtgan.

T.P. Zadoyenko va Xuan Shuinlarning yozishicha, xitoy tilida harakat mazmunini ifodalovchi va harakat yoʻnalishini koʻrsatuvchi feʼllar mavjud [6, 246 b.]. Mualliflar bu turdagi feʼllarni ikki guruhga ajratishadi. Birinchi guruhga makondagi harakatni ifodalovchi 7 ta feʼl kiritilgan: 进 “kirmoq”, 出 “chiqmoq”, 下 “tushmoq”, 上 “koʻtarilmoq”, 回 “qaytmoq”, 过 “kesib oʻtmoq”, 起 “koʻtarilmoq”. Ikkinchi guruhda soʻzlovchiga qaratilgan harakatni ifodalovchi 2 ta feʼl – 来 “kelmoq” va 去 “ketmoq” qayd qilinadi [6, 246 b.]. Yuqorida qayd etilgan 9 ta feʼlning barchasi ikki vazifada qoʻllanilishi mumkin:

1) mustaqil feʼl vazifasida;

2) modifikator vazifasida, yaʼni boshqa bir feʼlga bogʻlanib, harakat yoʻnalishini aniqlashtirib keladi.

Misol uchun:

他来了。 [Tā lái le] *U keldi.* (Bu yerda 来 mustaqil feʼl vazifasida kelmoqda.)

他跑来了。 [Tā pǎo lái le] *U yugurib keldi.* (Bu yerda yetakchi feʼl 跑, 来 esa modifikator, u harakatning soʻzlovchi tomon qaratilganligiga ishora qilib, koʻmakchi feʼl vazifasida kelmoqda.)

Mualliflar birinchi guruh feʼllarini shartli ravishda *jin* guruhi deb nomlaganlar. Shuningdek, modifikator bir boʻgʻin yoki ikki boʻgʻindan tashkil topishiga koʻra harakat yoʻnalishini ifodalovchi sodda va murakkab vositalarga boʻlinishini taʼkidlab

oʻtishgan. Harakat yoʻnalishini ifodalovchi murakkab vositalar ikki modifikatorga ega boʻlib, uning tartibi quyidagicha: avval *jin* guruhi modifikatori, keyin esa 来 va 去 qoʻllaniladi. Bu koʻrinishdagi ikki boʻgʻinli modifikator harakatning yoʻnalishini ham joyga, ham soʻzlovchiga nisbatan yanada aniqroq ifodalab kelishga xizmat qiladi [6, 321-322 b.]. Masalan:

走进来[zǒu jìnlái] yurib kirib keldi (bu yerga);
走进去[zǒu jìnqù] yurib kirib ketdi (u yerga);
拿回来[ná huílái] qaytarib olib keldi (bu yerga);
拿回去[ná huíqù] qaytarib olib ketdi (u yerga).

Demak, harakat yoʻnalishini ifodalovchi modifikatorlar sodda va murakkab shaklga ega. Gapda sodda yoki murakkab modifikatorlardan birini tanlash zarurati boʻlganda, gapning sintaktik qurilishiga va ohangiga eʼtibor qaratish lozim. Shuni ham taʼkidlab oʻtish joizki, harakat yoʻnalishini ifodalovchi modifikatorlar bilan toʻldiruvchi yoki boshqa bir soʻz, iboraning qoʻllanilishi baʼzida gapda sodda yoki murakkab modifikatordan qay birini qoʻllash lozimligini koʻrsatadi [7, 571 b.].

Du Xunszyunning tadqiqotida xitoy va rus tilshunoslarining gapda harakat yoʻnalishi feʼllarining qoʻllanilishiga oid nazariy qarashlari oʻrganilgan [3, 199 b.]. Uning koʻrsatishicha, xitoy tili grammatikasining barcha mualliflari harakat yoʻnalishi feʼllarining boshqa feʼlga nisbatan prepozitiv yoki postpozitiv joylashuviga koʻra mustaqil va koʻmakchi feʼl vazifalarini ajratadilar. Koʻmakchi feʼl boshqa feʼl yoʻnalishini aniqlashtirish yoki koʻrsatishga xizmat qiladi. Shuning uchun bularga gapdagi sintaktik vazifasidan kelib chiqib, mustaqil feʼl yoki koʻmakchi feʼl sifatida qarash lozim [3, 42 b.]. Agar harakat yoʻnalishi feʼli gapda modifikator vazifasini bajarsa, toʻldiruvchi yetakchi feʼl va modifikatorning oʻrtasida keladi. Masalan:

小孩儿来了[xiǎo hái'ér lái] Bola keldi.
小孩儿跑来了[xiǎo hái'ér pǎo lái] Bola yugurib keldi.
小孩儿跑进来了[xiǎo hái'ér pǎo jìnláile] Bola yugurib kirib keldi.

Birinchi gapda harakat yoʻnalishi feʼli 来 [lái] oriyentirga tomon harakatni bildirib, mustaqil feʼl sifatida kesim vazifasini bajarmoqda. Ikkinchi gapda esa 来 [lái] oriyentirga tomon harakatni ifodalab, modifikator sifatida murakkab feʼl tarkibida qoʻllanilgan: 跑来 [pǎo lái] – mustaqil maʼnoga ega harakat feʼli 跑 [pǎo] “yugurmoq” va modifikator 来 [lái] dan tashkil topgan; bunda 跑 pǎo “yugurmoq” feʼlidan keyin kelayotgan 来[lái] uning yoʻnalishini ifodalamoqda. Uchinchi misolda 进来[jìnlái] harakat yoʻnalishini ifodalovchi murakkab vosita – modifikator sifatida

oriyentirning ichiga tomon harakatni bildirib, 跑 [pǎo] “yugurmoq” harakat fe’li bilan birikkan holda uch bo’g’inli “yugurib kirib kelmoq” fe’lini hosil qilgan.

Harakat yoʻnalishini ifodalovchi soʻzlarning grammatik maʼnolari juda murakkab: aksariyat harakat yoʻnalishini ifodalovchi soʻzlar koʻplab maʼnoni ifodalashga xizmat qiladi, baʼzi harakat yoʻnalishini ifodalovchi soʻzlar esa faqat bir turdagi maʼnoni ifodalay oladi. Xitoy tili grammatikasida harakat yoʻnalishini ifodalovchi soʻzlar uch katta guruhga ajratiladi:

- 1) yoʻnalish maʼnosini anglatuvchi soʻzlar;
- 2) natija maʼnosini anglatuvchi soʻzlar;
- 3) holat maʼnosini anglatuvchi soʻzlar.

Modifikatorlarning yoʻnalish maʼnosi. Yoʻnalish maʼnosi aksariyat harakat yoʻnalishini ifodalovchi soʻzlarning asosiy maʼnosi va, shuningdek, harakat yoʻnalishi soʻzlari asli ifodalashi lozim boʻlgan maʼno hamdir. Harakat yoʻnalishini ifodalovchi soʻzlarning yoʻnalish maʼnosi inson yoki predmet maʼlum harakatni bajarib boʻlgach erishilgan natija sanaladi. Masalan, “来” boshlangʻich nuqta tomon harakatni ifodalaydi; “去” tark etilishi kerak boʻlgan nuqtadan boshqa yoʻnalish tomon harakatlanishni ifodalaydi; “上” quyi nuqtadan yuqoriga tomon harakatlanishni ifodalaydi; “下” esa yuqori nuqtadan quyi tomon harakatlanishni ifodalaydi va h.k.

“来”, “去” hamda “来”, “去” ishtirokidagi murakkab birikmali harakat yoʻnalishini ifodalovchi soʻzlarda ish-harakatining boshlangʻich nuqtasini aniqlash muammosi mavjud. Ish-harakatining boshlangʻich nuqtasi qay tarzda aniqlanadi?

(1) Soʻzlovchi yoki birinchi shaxs nutqidan foydalanilganda, soʻzlovchi yoki “men” ning oʻrni boshlangʻich nuqta boʻladi. Misol uchun:

他向我走过来[7, 547 b.]

[Tā xiàng wǒ zǒu guòlái]

U men tomon yurib keldi (boshlangʻich nuqta “我”, yaʼni “men” – soʻzlovchi turgan joy).

我向山上跑去[7, 548 b.]。

[Wǒ xiàngshān shàng pǎo qù]

Men togʻga yuqoriga qarab yugurib ketdim (boshlangʻich nuqta “我”, yaʼni “men” – soʻzlovchi turgan joy).

昨天我们上口语课，铃还没响，老师就进教室来了[7, 544 b.]。

[Zuótiān wǒmen shàng kǒuyǔ kè, líng hái méi xiǎng, lǎoshī jiù jìn jiàoshì láile]

Kecha bizlarda ogʻzaki til darsi boʻldi, qoʻngʻiroq chalinmasidanoq oʻqituvchi sinfga kirib keldi (boshlangʻich nuqta “我们”, yaʼni “bizlar” – soʻzlovchilar turgan joy).

(2) Uchinchi shaxs hikoyasidan foydalanilganda boshlangʻich nuqtani hikoya qilgan shaxs turgan joy deb belgilash mumkin. Misol uchun:

小张忽然昏倒地，大家急忙向他跑过来[7, 547 b.]。

[Xiǎo zhāng hūrán hūndǎo de, dàjiā jí máng xiàng tā pǎo guò lái]

Siao Jang kutilmaganda hushidan ketib yerga yiqildi, barcha shoshilganicha u tomon yugurdi (boshlangʻich nuqta “小张”, yaʼni “Siao Jang” turgan joy).

看见张大夫，他急忙跑了过去[7, 542 b.]。

[Kànjiàn zhāng dàfū, tā jí máng pǎo le guò qù]

Shifokor Jangni koʻrib, (u) shoshilganicha yugurib ketdi (boshlangʻich nuqta “他”, yaʼni “u” ilgari turgan joy).

Shunga eʼtibor qaratish kerakki, “来”, “去” soʻzlari harakat yoʻnalishini ifodalab kelganida, harakat doimo aniq yerga yoʻnalgan boʻladi.

“来” qoʻllanilganida boshlangʻich nuqta ish-harakatining maqsadi boʻladi, misol uchun: “车上的人都向他跑去”, “他” ish-harakat “跑” ning maqsadi.

Modifikatorlarning natija maʼnosi. Harakat yoʻnalishini ifodalovchi soʻzlarning baʼzilari yoʻnalishni ifodalamay, ish-harakatning natijasi yoki erishilgan maqsadni ifodalaydi. Aksariyat yoʻnalishni ifodalovchi soʻzlarda natija maʼnosi mavjud, shuningdek, baʼzi harakat yoʻnalishini ifodalovchi soʻzlar birgina natija maʼnosi bilan kifoyalanmaydi. Natija maʼnosi ham oʻz navbatida ikki turga boʻlinadi: asosiy natija maʼno va yoʻnalish maʼnosi bilan yaqin aloqada boʻlgan maʼno. Misol uchun, maʼlum bir harakat yoʻnalishini ifodalovchi soʻzda faqat birgina natija maʼnosi mavjud, bunday holda ushbu maʼno, asosan, asosiy natija maʼnosi sanaladi; asosiy natija maʼnosidan tashqari yana boshqa natija maʼno esa boshqa maʼno boʻladi. Misol uchun:

(asosiy natija maʼno)

我今天一出门就遇上了一场大雨 [7, 551 b.]。

[Wǒ jīntiān yī chūmén jiù yù shàng le yī chǎng dà yǔ]

Men bugun koʻchaga chiqishim bilanoq (darhol)jalaga yoʻliqdim.

这幅画儿很好看，你贴上去吧 [7, 556 b.]。

[Zhè fú huà er hěn hǎo kàn, nǐ tiē shàng qù ba]

Bu surat juda chiroyli ekan, uni ilib qoʻya qol.

(asosiy boʻlmagan natija maʼno)

我闭上眼睛想休息一会儿，听见有声，就睁开眼睛看了看，什么都没有 [7, 550 b.]。

[Wǒ bì shàng yǎnjīng xiǎng xiūxí yīhuǐ'er, tīngjiàn yǒushēng, jiù zhēng kāi yǎnjīng kànle kàn, shénme dōu méiyǒu]

Men ko 'zlarimni yumib biroz dam olmoqchi edim, qandaydir shovqin eshitildi, darhol ko 'zlarimni ochib qaradim, hech narsa yo 'q.

Modifikatorlarningholat ma'nosi. Harakat yo'nalishini ifodalovchi so'zlarning holat ma'nosi natija ma'nosiga qaraganda mavhumroq, yo'nalish ma'nosi orqali harakat ifodasi, holatning vaqt chegarasidagi rivoji, boshlanishi, davom etishi va to'xtashi kabilar yuzaga keltiriladi (yo'nalish bilan aloqasi yo'q).

Faqat “上”, “下”, “下来”, “下去”, “起”, “起来”, “开” larda holat ma'nosi mavjud. Yo'nalishni ifodalovchi vositalarning holat ma'nosi o'z mustaqil ma'nosini yo'qotib, yordamchi so'z turkumiga xoslanib boradi. Shu sababli aksariyat tilshunos olimlar o'z asarlarida ularni harakat holatini ifodalovchi yordamchi so'zlar tarkibiga kiritganlar. Masalan:

看见地上有一条蛇，她吓得叫了起来[7, 553 b.]。

[Kànjiàn dìshàng yǒu yītiáo shé, tā xià dé jiàole qǐlái]

Yerda ilon yotganini ko 'rib, u qo 'rqqanidan baqirib yubordi.

听他说完，大家都笑了起来[7, 557 b.]。

[Tīng tā shuō wán, dàjiā dōu xiàole qǐlái]

U gapini tugatishi bilanoq, hamma kulib yubordi.

Ko'rinib turgnidek, holat ma'nosi modifikatorlarning boshqa ma'nolariga qaraganda mavhumroqdir. Yuqorida berilgan ikkita misolda ish-harakatining davomiyligiga ishora qilinayapti.

Xulosa. Yuqorida ko'rib chiqilganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1) xitoy tilida harakat yo'nalishi fe'llari gapda mustaqil fe'l vazifasidan tashqari, ko'makchi fe'l vazifasida ham qo'llanila oladi va ular modifikator deb ataladi;

2) modifikator bir bo'g'in yoki ikki bo'g'indan tashkil topishiga ko'ra harakat yo'nalishini ifodalovchi sodda va murakkab vositalarga bo'linadi;

3) xitoy tili grammatikasida yo'nalish modifikatorlarining grammatik ma'nolari uch katta guruhga ajratiladi. Ularyo'nalish, natjavaholat ma'nolaridir:

a) modifikatorlarningyo'nalish ma'nosi aksariyat yo'nalish modifikatorlarining asosiyifodalashi lozim bo'lgan ma'nosidir. Yo'nalishma'nosidaish-harakatining boshlang'ich nuqtasiso'zlovchiturgan joy yokijumlaningqaysishaxstomonidangapirilayotganigaqarabbelgilanadi.

b) modifikatorlarning natija ma'nosiiish-harakatning natijasi yoki erishilgan natijani ifodalaydi. Aksariyat modifikatorlarda natija ma'nosi mavjud, shuningdek,

natija ma’no ham o‘z navbatida ikki xil bo‘lib, ular asosiy natija ma’no va yo‘nalish ma’nosi bilan yaqin aloqada bo‘lgan ma’no deb ataladi.

c) modifikatorlarning holat ma’nosi modifikatorlarning boshqa ma’nolariga qaraganda mavhumroqdir. Holat ma’nosi asosan harakat ifodasi, holatning vaqt chegarasidagi rivoji, boshlanishi, davom etishi va to‘xtashi kabilarni ifodalaydi. Ammo ushbu ma’nolarning yo‘nalish ma’nosi bilan aloqasi bo‘lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Аошуан. – Москва: Языки славянской культуры, 2002.
2. Драгунов А.А. Исследования по грамматике современного китайского языка. Ч.1.–М.: Ленинград, 1952.
3. ДуХунцзюнь. Система приставочных глаголов движения в русском языке в сопоставлении с китайским языком: Дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2010. – 199 с.
4. Тань Аошуан. Проблемы скрытой грамматики: синтаксис, семантика и прагматика языка изолирующего строя (на примере китайского языка) / Тань Аошуан. – Москва: Языки славянской культуры, 2002.
5. Хаматова А.А. Словообразование современного китайского языка. – Москва: Муравей, 2003.
6. Задоев Т.П., Хуан Шуин. Начальный курс китайского языка. Ч.2. Изд. 2-е, стер. – М.: Муравей, 2004.
7. 《实用现代汉语语法(增订本)》刘月华，潘文娣，故桦. 北京 2013.-1005 页.
8. 刘月华，潘文娣，故桦 Liu Yuehua, Pan Wenyu, Gu Hua. 《实用现代汉语语法(Amaliy zamonaviy xitoy tili grammatikasi)》. 北京: 商务印书馆, 2013.
9. 吕叔湘 Lu Shuxian. 现代汉语八百词(Hozirgi xitoy tilining 800 ta so‘zi), -北京: 商务印书馆, 1997.
10. 马烧莹 Ma Shaoin. 现代汉语趋向动词语义研究. Hozirgi xitoy tilida harakat yo‘nalishi fe’llari semantikasi tadqiqi. Magistrlik ishi. – Fudan universiteti, 2004.
11. 散文佳作 108 篇 108 шедевральных саньвэней / 乔萍等编著 под редакцией Цзяо Пин. – 南京:译林出版社, Нанкин: Илинъ, 2009.
12. 张发明 Zhang Faming. 趋向动词“来”“去”新义 (“来” va “去” harakat yo‘nalishi fe’llari haqida yangi tushunchalar”)// 1983.